



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 160 sahifa,
2-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
Xalilayev Batirjon Taxirovich	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
Xurramov Anvar Jumanazarovich	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
Аслонова Гуллола Акрам кизи	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
Умарова Дильфуза Маматкуловна	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
Пирманова Бахора Эшмухаммадовна	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
Olimova Sarvara Sobitxon qizi	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
M. B. Muxtorova	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi	

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA EMPATIYA VA RAHM-SHAFQATNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Olimova Sarvara Sobitxon qizi

Qo'qon universiteti

Maxsus pedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi

Abstract: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati o'rganilgan. Maqola empatiya tushunchasining kognitiv, affektiv va amaliy turlarini tahlil qiladi, pedagogning empatik yondashuvi maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlashdagi rolini ko'rsatadi. Shuningdek, rahm-shafqatning madaniy va ma'naviy qadriyat sifatidagi o'rni, o'quvchilarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'limda pedagogik kompetensiya va insonparvarlik tamoyillarining ahamiyatini ta'kidlaydi hamda amaliy tavsiyalar beradi.

Key words: empatiya, inklyuziv ta'lim, rahm-shafqat, kompetensiya, tamoyil, pedagog, yondashuv.

Annotatsiya: This article studies the pedagogical significance of empathy and compassion in the process of inclusive education. The article analyzes the cognitive, affective, and practical types of the concept of empathy and shows the role of the teacher's empathetic approach in ensuring the successful integration of children with special needs into the educational process. It also discusses the role of compassion as a cultural and spiritual value and its impact on the psychological and social development of students. The results of the study emphasize the importance of pedagogical competence and the principles of humanism in inclusive education and provide practical recommendations.

Kalit so'zlar: empathy, inclusive education, compassion, competence, principle, educator, approach.

Аннотация: В данной статье исследуется педагогическое значение эмпатии и сострадания в процессе инклюзивного образования. Анализируются познавательный, аффективный и практический типы понятия эмпатии, показана роль эмпатического подхода учителя в обеспечении успешной интеграции детей с особыми потребностями в образовательный процесс. Также рассматривается роль сострадания как культурной и духовной ценности, его влияние на психологическое и социальное развитие учащихся. Результаты исследования подчеркивают важность педагогической компетентности и принципов гуманизма в инклюзивном образовании и содержат практические рекомендации.

Ключевые слова: эмпатия, инклюзивное образование, сострадание, компетентность, принцип, педагог, подход.

KIRISH

Dunyo miqyosida, qolaversa yurtimizda ham inklyuziv ta'lim masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Inklyuziv ta'lim – barcha bolalarning, jumladan nogironligi bo'lgan va maxsus ehtiyojli bolalarning tengdoshlari bilan birga umumiy maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatli ta'lim olishini ta'minlovchi tizimdir. Mazkur yondashuv farqlardan qat'i nazar, har bir bolaning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishiga xizmat qiladi. Shuningdek, u ta'lim muassasalari infratuzilmasini moslashtirish va moslashuvchan o'qitish usullarini qo'llash orqali teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi.

Jamiyatda maxsus ehtiyojli bolalar sonining ortib borishi ularning ta'lim va tarbiya jarayoniga to'laqonli jalb etilishini ta'minlash masalasini muhim pedagogik vazifalardan biriga aylantirmoqda. Inklyuziv ta'lim nafaqat teng imkoniyatlarni yaratishni, balki har bir bolaning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda uning har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni ham ko'zda tutadi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash jarayonida faqat metodik yondashuvlar yetarli emas, balki o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlar ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, empatiya va rahm-shafqat kabi insoniy sifatlar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy moslashuv, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash jarayonida qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadilar. Bunday vaziyatlarda pedagogning empatik munosabati bolaning ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Inklyuziv



ta'lim sharoitida o'quvchilarning ta'lim jarayoniga moslashuvi ko'p jihatdan o'qituvchining empatik yondashuviga bog'liqdir. Empatiya va rahm-shafqat pedagogik jarayonda ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi, bolaning o'zini xavfsiz va qadrlangan shaxs sifatida his etishiga yordam beradi hamda ta'lim samaradorligini oshiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyatini ilmiy asosda yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: empatiya tushunchasining pedagogik mohiyatini ochib berish; inklyuziv ta'limda empatiya va rahm-shafqatning o'zni va ahamiyatini tahlil qilish; ularning ta'lim jarayoniga ta'sirini ilmiy asosda ko'rsatib berish.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim amaliyotida metodik yondashuvlar bilan bir qatorda pedagogning shaxsiy va kasbiy fazilatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash jarayonida o'qituvchining ularning holatini tushuna olishi, hissiy kechinmalarini anglay olishi va mos pedagogik munosabat bildirish olishi ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan empatiya inklyuziv ta'lim jarayonining muhim pedagogik omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy hamda yurtimiz olimlari "empatiya" tushunchasiga turli ilmiy yondashuvlar asosida ta'rif berib kelmoqdalar. "Empatiya" so'zi yunoncha "empathia" (em – "ichida", pathos – "ehtiros", "kuchli tuyg'u", "iztirob") so'zlaridan kelib chiqqan. Ilmiy muomalaga ushbu atama ingliz psixologi E. Titchener tomonidan 1909-yilda nemischa "Einfuhlung" ("hissiy kirish", "hamdardlik bilan his etish") so'zining tarjimai sifatida kiritilgan.

Empatiyaning kognitiv (intellektual) va affektiv (hissiy-tajribaviy) tarkibiy qismlarining nazariy integratsiyasini asoslash L. S. Vigotskiyning ilmiy-nazariy qarashlari bilan bog'liqdir¹. Uning ta'kidlashicha, kechinma (perejivaniye) ong tuzilishining dinamik birligi bo'lib, unda tafakkur va hissiyot o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv empatiyaning shaxsning murakkab psixologik tuzilmasi sifatida talqin etishga metodologik asos yaratadi.

Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda empatiya shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil etishning muhim psixologik omili sifatida e'tirof etiladi. Jumladan, Carl Rogers empatiyaning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosiy komponenti sifatida baholab, uni insonni chuqur tushunish va shartsiz qabul qilish jarayoni deb ta'riflaydi. Uning fikricha, empatik munosabat shaxsning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu konsepsiya ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ishonch, hurmat va samarali hamkorlikni shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi².

Empatiyaning tarkibiy tuzilmasi masalasi ko'plab tadqiqotchilar e'tibor markazida bo'lib kelgan³. Ilmiy adabiyotlarda empatiya kognitiv va affektiv komponentlardan tashkil topgan murakkab psixologik hodisa sifatida talqin etiladi. Kognitiv empatiya boshqa shaxsning ruhiy holatini aqliy jihatdan anglashni bildirsa, affektiv empatiya uning hissiy kechinmalarini hamdardlik asosida birgalikda his etishni ifodalaydi⁴. Ta'lim jarayonida mazkur ikki komponentning uyg'unligi pedagogik ta'sir samaradorligini oshiradi hamda o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik tadqiqotlarda empatiya o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari o'qituvchi empatiyasining o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ta'lim jarayonidagi faolligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi⁵. Ayniqsa, inklyuziv ta'lim sharoitida empatik yondashuv maxsus ehtiyojli bolalarning psixologik moslashuvini qo'llab-quvvatlovchi va ularning ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, nazariy-tahliliy yo'nalishda amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogika va psixologiya fanlariga oid ilmiy konsepsiyalar, shuningdek, inklyuziv ta'limning insonparvarlik va tenglik tamoyillari tashkil etadi.

Metodologik baza sifatida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, empatiyaning ko'p komponentli modeli hamda pedagogik kompetensiya nazariyalari qabul qilindi. L. S. Vigotskiyning ong va kechinma birligi haqidagi qarashlari empatiyaning kognitiv va affektiv jihatlarini ilmiy asoslashda nazariy tayanch vazifasini bajardi.

1 Achilova M. M. Shaxslararo munosabatlarda empatiya hissi Ahamiyatining ilmiy adabiyotlarda o'rganilganlik holat. "Ijtimoiy fanlar" №1/2024

2 Rogers.C. Empathic: An Unappreciated Way of Being. The Counseling Psychologist.1975. Vol. 5, No-2. pp. 2–10.

3 Davis, M. H. Measuring Individual Differences in Empathy. Journal of Personality and Social Psychology. 1983. Vol. 44. No. 1, pp. 115

4 Aldrup, K., Carstensen, B., & Klusmann, U. Is Empathy the Key to Effective Teaching? Educational Psychology Review.2022 Vol. 34, No. 1, pp. 145.

5 Bekbo'sinova. L. Inklyuziv ta'limda empatiya va tolerantlik masalalari. Ta'lim va tarbiya ilmiy-uslubiy jurnali, 2023. 2-son. B. 88

Tadqiqot jarayonida ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy-tahliliy yondashuv, mantiqiy umumlashtirish hamda konseptual modellashirish usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar empatiyaning kognitiv, affektiv va amaliy shakllarini inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus ehtiyojli bolalarning psixologik moslashuvi, ijtimoiy integratsiyasi va o'quv faolligiga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganish imkonini berdi.

Natijada empatiya pedagogik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi ekani hamda rahm-shafqat bilan uyg'unlikda inklyuziv ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati nazariy manbalar hamda ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Adabiyotlar sharhi va konseptual yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatdiki, empatiya pedagogik faoliyatda ko'p qirrali va tizimli hodisa sifatida namoyon bo'ladi hamda u o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarkibida muhim o'rin egallaydi⁶.

Tahlil natijalariga ko'ra, empatiya uch asosiy komponent – kognitiv, affektiv va amaliy shakllarda pedagogik jarayonda o'z ifodasini topadi. Kognitiv empatiya o'qituvchiga o'quvchining individual xususiyatlari, qiyinchilik sabablari va o'zlashtirish darajasini chuqur anglash imkonini beradi⁷. Bu esa ta'lim mazmunini moslashtirish, individual strategiyalarni ishlab chiqish va samarali didaktik qarorlar qabul qilishda muhim omil hisoblanadi.

Affektiv empatiya pedagog va o'quvchi o'rtasida ishonchli va samimiy munosabatni shakllantiradi⁸. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining o'quvchi hissiy holatini anglay olishi uning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, dars jarayonidagi faolligini oshiradi va psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda affektiv empatiya ularning ta'lim jarayoniga ijobiy munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy empatiya esa empatik tushuncha va hissiyotlarning real pedagogik harakatga aylanishini anglatadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, vazifalarni moslashtirish, individual yondashuvni qo'llash va qo'shimcha pedagogik yordam ko'rsatish o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu jarayonda pedagogning kasbiy mahorati va metodik tayyorgarligi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuningdek, rahm-shafqatning empatiya bilan uyg'unligi inklyuziv ta'lim muhitida ijobiy ijtimoiy-psixologik sharoitni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Rahm-shafqatga asoslangan pedagogik munosabat o'quvchilarda xavfsizlik hissinini, o'zini qadrlangan shaxs sifatida anglashni va jamoaga mansublik tuyg'usini rivojlantiradi. Natijada, o'quvchilarning ijtimoiylashuvi faollashadi va ta'lim jarayonidagi ishtiroki barqarorlashadi.

Tahlil jarayonida inklyuziv ta'limning tenglik tamoyili empatiya bilan bevosita bog'liqligi ham asoslandi⁹. Empatik yondashuv pedagogga har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, adolatli va insonparvar ta'lim muhitini tashkil etish imkonini beradi¹⁰. Bu esa inklyuziv muhitning barqarorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi¹¹.

Umuman olganda, o'tkazilgan nazariy tahlil natijalari quyidagi xulosalarni beradi:

- empatiya pedagogik kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi;
- empatiyaning kognitiv, affektiv va amaliy shakllari uyg'unligi ta'lim samaradorligini oshiradi;
- rahm-shafqat inklyuziv ta'limda insonparvarlik va tenglik tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda muhim vosita hisoblanadi;
- empatiya va rahm-shafqatga asoslangan pedagogik yondashuv maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlaydi¹².

Shu tariqa, tadqiqot natijalari empatiya va rahm-shafqat inklyuziv ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy pedagogik omillardan biri ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

6 Djurayeva S. B. va Mustaqova M. Sh. Inklyuziv ta'lim tamoyillari. Innovative research in science International scientific 2025. B-26

7 Davis, M. H. (1983). Measuring Individual Differences in Empathy: Evidence for a Multidimensional Approach. Journal of Personality and Social Psychology, Vol. 44, No. 1, pp. 113–126.

8 Moore A. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. 2004. RoutledgeFalmer, 2004. – B. 146.

9 Muhammadjonov J va Olimova S. Oliy ta'limda pedagogik kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari. Qo'qon universiteti xabar-nomasi. 2025. B-120.

10 Rogers, C. (1975). Empathic: An Unappreciated Way of Being. The Counseling Psychologist, Vol. 5, No. 2, pp. 2.

11 Aldrup, K., Carstensen, B., & Klusmann, U. (2022). Is Empathy the Key to Effective Teaching? Educational Psychology Review, Vol. 34, No. 1, pp. 118.

12 Muslim, A. H. (2007). Sahih Muslim (Hadith 2699).



XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqat pedagogning muhim kasbiy hamda insoniy fazilatlarini hisoblanadi. Empatiya kognitiv, affektiv va amaliy shakllarda namoyon bo'lib, pedagogga o'quvchining fikrini anglash, hissiy holatini his etish hamda unga mos amaliy yordam ko'rsatish imkonini beradi. Shu orqali maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim jarayoniga faol integratsiyalashadi, o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi va ijtimoiylashuv jarayoni samarali kechadi.

Pedagogning empatik yondashuvi va rahm-shafqatga asoslangan faoliyati nafaqat individual o'quvchi rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, balki inklyuziv muhitning barqarorligini ta'minlaydi hamda ta'lim samaradorligini oshiradi. Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda dars jarayonini moslashtirish va individual yondashuvni qo'llash o'quv faoliyatining muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Rahm-shafqat nafaqat pedagogik tamoyil, balki madaniy va ma'naviy qadriyat sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Islom va Sharq madaniyatida inson qadrini yuksak tutish, qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezuvchi shaxslarga mehr va g'amxo'rlik ko'rsatish yuksak fazilat sifatida e'tirof etiladi. Shu asosda pedagog inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari – tenglik, insonparvarlik va adolatni amaliyotga izchil tatbiq etadi.

Shu munosabat bilan pedagoglar va ta'lim muassasalari uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

1. Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish jarayonida empatiya va rahm-shafqat ko'nikmalarini shakllantirish hamda mustahkamlashga alohida e'tibor qaratish.
2. Inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarning psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni izchil qo'llash.
3. Ta'lim muhitini insonparvarlik va tenglik tamoyillari asosida tashkil etish, bunda har bir o'quvchi o'zini qadrlangan va ishonchli his etishini ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, empatiya va rahm-shafqatga asoslangan pedagogik yondashuv maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Mazkur yondashuv ularning bilim olish, ijtimoiylashuv va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi hamda inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Achilova, M. M. Shaxslararo munosabatlarda empatiya hissi ahamiyatining ilmiy adabiyotlarda o'rganilganlik holati // Ijtimoiy fanlar. – 2024. – № 1.
2. Rogers, C. Empathic: An Unappreciated Way of Being // The Counseling Psychologist. – 1975. – Vol. 5. – No. 2. – pp. 2–10.
3. Davis, M. H. Measuring Individual Differences in Empathy // Journal of Personality and Social Psychology. – 1983. – Vol. 44. – No. 1. – pp. 113–126.
4. Aldrup, K., Carstensen, B., & Klusmann, U. Is Empathy the Key to Effective Teaching? // Educational Psychology Review. – 2022. – Vol. 34. – No. 1. – pp. 118–145.
5. Bekbo'sinova, L. Inklyuziv ta'limda empatiya va tolerantlik masalalari // Ta'lim va tarbiya ilmiy-uslubiy jurnali. – 2023. – 2-son. – B. 88–92.
6. Djurayeva, S. B., & Mustaqova, M. Sh. Inklyuziv ta'lim tamoyillari // Innovative Research in Science. – 2025. – B. 26–30.
7. Muhammadjonov, J., & Olimova, S. Oliy ta'limda pedagogik kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2025. – B. 120–125.
8. Moore, A. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. – London: RoutledgeFalmer, 2004. – p. 146.
9. Muslim, A. H. Sahih Muslim (Hadith 2699). – 2007.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.